
DEVONA (II- QISM)

Tohir Malik

SINOV

Kesganbelga shom tushdi. Asqarali, choyxonada hech kim qolmagan bo'lsa-da, Dilmurod kelib qolar, deb poylab o'tirdi. Kunduzgi voqea asirligidan qutula olmagan Rhaq-Mirzavoy ham noiloj samovarxonada qoldi. Asqarali choy damlab kelib so'riga chiqdi-da, Mirzavoyni yoniga chorlab, choy quyib uzatdi.

— Dilmurodjon ham xuddi to'ng'ichimga o'xshab besaranjom ekanlar, — dedi u kaftiga nos tashlab, — to'ng'ichim o'ziga-o'zi qildi. Raislikni tuppa-tuzuk eplab turuvdi. Xalq ham undan rozi edi. Ispaniyaga borishning nima keragi bor edi unga, hayronman. Begona yurt bo'lsa, u yerda amma-xolasi bo'lmasa. Na aza ochishni bilasiz, na kutishni...

— Ketayotganlarida rizolik berib edingizmi?

— Rizolik... — Asqarali bir zum o'ylanib bosh irg'adi-da, kaftidagi nosni yana nosqovoqqa qaytarib to'kdi. — Rizolik bermay ilojim qancha?

— Boshqalarning dardiga befarq qaramasa, yaxshi odam ekan o'g'lingiz.

— Nimasini aytasiz. Shu kolxozni deb necha o'lib, necha tirilgan. Agar o'g'lim yelib-yugurmaganda Mamarayimga o'xshaganlar qishloqning yarmini quloq qilib yuborishardi. Kelib-kelib ro'yxat tuzishni Mamarayimga topshirishibdi. Bitta sigiri borni ham tirkabdi-da ro'yxatga bu zang'ar. Yo'q, o'g'lim yo'l bermadi. Kattalargacha borib keldi. Bo'lmasa unga nima edi? Ro'yxatni Mamarayim tuzgan. Gunohi ham uning bo'ynida... G'alati bola edi to'ng'ichim, esiz, peshonamga sig'madi. Bolamdan zurriyot qolmadi. Shunga kuyaman. Boyoqishning Saboxonda ko'ngli bor ekan. Boshqaga uylanmadi. Saboxonning ham ko'ngli bor edi o'g'limga. Ammo otasi iblislik qildi. «To'rtta odam yig'lsa, qudam shu kishi bo'ladi, deb cho'tirni ko'rsatamanmi?» debdi. Gapini qarang, zang'arning. U aslida mening cho'tirligimdan or qilmagan. Foyda unsa moxov bilan og'iz-burun o'pishadi u odam. Mo'mayroq qalinga umid qilgan, chamamda. O'g'lim rais bo'lgani bilan echkimiz ham yo'q edi. E, ishqilib omon bo'lishsin. Dunyo shunaqa ekan-da.

Asqarali kaftiga nos to'kib, tilining tagiga tashladi-da, kaftini qoqdi.

— Turib-turib Saboxonga achinaman. Otasining ra'yiga qarab bebaxt bo'ldi, bechora. Qaynag'asi o'zini osib qo'ygandan keyin eri to'satdan g'oyib bo'ldi. Yerga kirib ketdimi, osmonga chiqdimi — hech kim bilmaydi. Saboxon ikki o't orasida kuyib ado bo'lyapti. Erini kutay desa, kuz kelsa uch yil bo'ladi — nom-nishon yo'q. Boshqasini er qilay desa — boshi ochiq emas. Tag'in ham ayol zotining joni temirdan bo'larkan. Boshimga bunaqa g'am tushsa, men chidamay, tars yorilib ketardim... — Bu gaplarni eshitib Rhaq-Mirzavoyning ko'z oldiga Nazira keldi. Saboxonning uzori Naziraga o'xsharkan, deb yursa, qismati ham bir ekan-ku? Nazira ham ko'ngil qo'yaniga yetisholmay azobda qolgan edi. Saboxon ham. Nahot birgina gapni aytilish qiz bola uchun shunchalar mashaqqat bo'lsa?.. Bu holni biron bayon qilsa Rhaq ishonmas edi. Nazirani ko'rib, ikkilangan edi. Saboxonning qismati endi uni butkul hayratga soldi... Chunki u ayolning